
Tashabbusli byudjet: To'da mahallasidagi ichki ko'chalar asfaltlandi

□ Rishton tumanida tashabbusli byudjet asosida olib borilayotgan ishlar hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy holatini yanada yaxshilashga xizmat qilyapti. Mazkur loyihada o'z tashabbuslari bilan faol qatnashgan mahallalardagi yo'l, ichimlik suv, elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolar bosqichma-bosqich o'z yechimini topmoqda.

✿ «To'da» mahalla fuqarolar yig'ini aholisi ham mazkur loyihada faol ishtirok etib, ko'plab tashabbuslarining g'oliblar qatoridan o'rin olishiga erishishdi. Hududdagi aholini uzoq yillardan beri ichki yo'llardagi noqulayliklar qiynab kelardi. Bu esa aholining haqli e'tiroziga sabab bo'lardi. Ushbu muammoga esa tashabbusli byudjet jarayoni yechim bo'lmoqda.

???? Mahalla aholisini ichki ko'chalarni asfaltlashtirish yuzasidan ilgari surilgan tashabbusni amalga oshirish uchun mablag' ajratilib, asfaltlash ishlari boshlab yuborildi.

Loyiha doirasida belgilangan bunyodkorlik ishlari mahallada davom etmoqda.

2023-12-14 09:40:55